

TIL VA MADANIYATNING O'ZARO ALOQASI

Safarova Niginabonu Hayot qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Sharq filologiyasi fakulteti, 3-kurs talabasi
nsafarova172@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va madaniyat tushunchalarining bir-biriga chambarchas bog'liq ijtimoiy hodisa ekanligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, madaniyat xalqning dunyoqarashi, urf-odatlarini o'z ichiga olsa, til bu tushunchalarni ifodalovchi vosita ekanligi haqida yozib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Til, madaniyat, aloqa vosita, tilshunoslik, xalq, an'ana, tarixiy, qadriyat.

Abstract. This article discusses that the concepts of language and culture are closely interconnected social phenomena. It is also noted that culture includes the worldview and traditions of a people, while language serves as a means of expressing these concepts.

Keywords: Language, culture, means of communication, linguistics, nation, tradition, historical, value.

Аннотация. В данной статье рассматривается, что понятия языка и культуры являются тесно взаимосвязанными социальными явлениями. Также отмечается, что культура включает мировоззрение и традиции народа, а язык является средством выражения этих понятий.

Ключевые слова: Язык, культура, средство общения, лингвистика, народ, традиция, исторический, ценность.

Kirish. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabat jamiyatdagi eng dolzarb masalalaridan biridir va bu masala uzoq yillardan beri muhokama qilinib kelinmoqda. Til va madaniyatning jamiyatda ahamiyati shundaki, til odamlar o'rtasida aloqa-almashinuv uchun muhim vositadir, chunki til odamlarga muloqot qilishga, his-tuyg'ularini, fikrlarini va o'z ehtiyojlarini bir-birlariga yetkazishga yordam beradi. Shuningdek, til-millatning ma'naviy boyligi, qiyofasining bir bo'lagi va birdamligi timsolidir. Har bir millat o'zining betakror xususiyatlari va boy madaniy merosi orqali boshqa xalqlardan ajralib turadi. Bu jarayonda, shubhasiz, uning tili ham madaniyatining yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, millat madaniyatining yuksalishi, uning tarixiy an'analari, qadriyatlari va ma'naviy xotirasini aks ettirishda tilning o'rnini beqiyosdir. Til – madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, muloqot jarayonida milliy ruh va qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Asosiy qism. Ma'lumki, til nafaqat madaniyatning bir bo'lagi, balki uning asosiy quroli, ruhining ifodasi hamda mavjudlik shaklidir. Shu o'rinda muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: "Dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimizning ramzi, bebaho ma'naviy xazinadir. Kimki o'zbek tilining nafisligi, jozibasi va ta'sir kuchini his etmoqchi bo'lsa, onalar allasini, asrlar osha yashab kelayotgan dostonlarni, hikmatli maqollarni tinglasin, baxshi va hofizlarimizning sehrli kuy-qo'shiqlariga quloq tutsin". Ushbu fikrlar til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qolaversa, har qanday millatga tegishli til o'sha xalq bilan birga yashaydi, uning bilan birga rivoj topadi va bardavom bo'ladi. Har bir xalqning o'ziga xos tabiati, turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati va san'ati bo'lgani kabi, uning eng aziz ne'mati – Ona tili ham mavjud. Suvsiz daryo tasavvur etib bo'lmaganidek, tilsiz millatning mavjudligi ham mumkin emas. Inson uchun tug'ilib o'sgan vatani, ota-onasi va oilasi qanchalik qadri bo'lsa, uning Ona tili ham shunchalik muqaddas va e'zozlidir.

Shu bois tilshunoslikda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqadorlik masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Millatning o'ziga xos urf-odatlar va an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan nutqni me'yorlashtirish, uni muayyan qonun-qoidalar asosida tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Til va madaniyat munosabatlarini uzoq yillar davomida o'rganish natijasida umumiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya, falsafa kabi fanlar yangi qirralar bilan boyidi. Natijada lingvomadaniyatshunoslik, kommunikativ tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, sosiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi zamonaviy yo'nalishlar shakllanib, ilmiy izlanishlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni izohlash jarayonida turli qarashlar mavjud bo'lishi tabiiy, chunki bu ikki tushuncha nihoyatda keng va ko'p qirrali hisoblanadi. Biroq ilmiy izlanishlar natijasini umumlashtirar ekanmiz, til va madaniyat yagona butunlikni tashkil etadi, ular o'zaro bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi. O'zbek milliy madaniyatining yirik namoyandasi, ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: “Har bir millatning o'zligini namoyon etuvchi oynasi uning tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotish – millat ruhini yo'qotish demakdir”. Darhaqiqat, til – millatning ko'zgusi, ma'naviyat sarchasmasidir. Madaniyat-bu har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, an'analari, qadriyatlar va dunyoqarashini o'zida aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisadir. Nemis faylasufi I. G. ga ko'ra. Cho'lpon, madaniyat jahon tarixida qanday o'rin egallashidan qat'i nazar, barcha xalqlarning zaruriy atributiga aylanadi. Shu bilan birga, “madaniyat” so'zi barcha Yevropa tillarida ko'p ma'nolarga ega. Har bir millat va xalqning o'z tarixi, o'z madaniyati bor, u asrlar va hatto ming yillar davomida shakllangan va har bir millatning asosiy o'ziga xosligi aynan uning tilida. Tildan boshqa hech narsa ma'lum bir xalqning til sifatida barcha o'ziga xos xususiyatlari va nozikliklarini aks ettirmaydi. Shuningdek, Turkiya va O'zbekiston xalqlari tarixiy ildizlari, til oilasi va urf-odatlar jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning madaniyatida o'ziga xos farqlar mavjud.

Til va adabiyot. Turk tili va o'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, grammatik tuzilishi va ko'plab so'zlari jihatidan o'xshashdir. Biroq turk tiliga Yevropa tillarining, o'zbek tiliga esa fors-tojik va arab tillarining ta'siri kuchliroq. Adabiyotda ham umumiyliklar mavjud: masalan, Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiyotning muhim qismi bo'lsa, turk adabiyotida Yunus Emre va Orxan Pamuk kabi yozuvchilar mashhurdir.

Urf-odat va an'analari. Har ikkala xalqda mehmondo'stlik muhim qadriyat hisoblanadi. To'y marosimlari, milliy bayramlar (masalan, Navro'z) katta ahamiyatga ega. Ammo farqlar ham bor: Turkiyada zamonaviylik va G'arb madaniyati ta'siri kuchliroq. O'zbekistonda esa an'anaviy urf-odatlar va milliy qadriyatlar ko'proq saqlanib qolgan.

Milliy taomlar va kiyimlar. Turk oshxonasi kebab, baklava, lahmacun kabi taomlari bilan mashhur. O'zbek oshxonasi esa palov, somsa, lag'mon kabi milliy taomlari bilan tanilgan. Milliy kiyimlarda ham o'xshashliklar bor, ammo O'zbekistonda

atlas va adras kabi matolar keng qo'llaniladi, Turkiyada esa zamonaviy kiyim uslubi ustunroq. Turkiya va O'zbekiston madaniyati umumiy tarixiy ildizlarga ega bo'lsa-da, ularning rivojlanish yo'li turlicha bo'lgani sababli ayrim farqlar yuzaga kelgan. Shunga qaramay, har ikki xalq o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylab kelmoqda va bu ularning boy madaniy merosini namoyon etadi.

Til faqatgina aloqa vositasi emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy mezonlari hamda estetik didini o'zida aks ettiruvchi madaniy boylikdir. Har bir millat o'z tili orqali o'ziga xos tafakkur uslubini, fikrlash tizimini, yashash tarzini, an'ana va urf-odatlarini hamda qadriyatlarini asrab-avaylab, ularni avlodan-avlodga yetkazib boradi. Masalan, o'zbek tilida keng qo'llaniladigan "or-nomus", "mehr-oqibat", "andisha" kabi so'zlar xalqimizning ichki dunyosi va axloqiy mezonlarini yaqqol ifodalaydi. Bu tushunchalar insonning o'z qadrini bilishi, boshqalarga nisbatan hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'lishi, jamiyatda o'z o'rnini anglab yashashini anglatadi. Shu bilan birga, ular milliy tafakkur, odob-axloq va ijtimoiy qadriyatlarning til orqali namoyon bo'lishiga yorqin misol bo'la oladi. Shuningdek, bu kabi so'zlarni tildan ajratib, alohida shaklda tasavvur qilish qiyin- ular inson ongi va madaniy hayoti bilan uzviy bog'liq.

Xulosa. Til va madaniyat har bir jamiyatning muhim va ajralmas tarkibiy elementlari hisoblanib, insonning ijtimoiy hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada til va madaniyatning o'zaro aloqadorligi, ularning jamiyatdagi ahamiyati, shuningdek, tilning madaniyatni ifodalashdagi hamda madaniyatning tilni boyitishdagi o'zni tahlil etildi. Til va madaniyat bir-birini to'ldiruvchi va shakllantiruvchi omillar sifatida inson tafakkuri hamda dunyoqarashining asosiy negiziga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonov, S. (1972). Umumiy tilshunoslik.
2. Amirova, T. A., Olxovikov, B. A., & Rojdestvenskiy, Yu. V. (1975). Ocherki po istorii lingvistiki.
3. Baskakov, N. A., Sodiqov, A. S., & Abduazizov, A. A. (1979). Umumiy tilshunoslik.
4. Xolmonova, Z. T. (2000). Tilshunoslikka kirish.
5. Irisqulov, M. (1992). Tilshunoslikka kirish.
6. Dadaboyev, H. A. (2004). Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi.
7. Rahimov, X. (2022). Til va madaniyat o'zaro ta'siri. Filologiya masalalari, (2), 45–50.
8. Nurmatova, G. (2020). Til va tafakkur: madaniyatlararo kommunikatsiya asoslari.